

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI YALPI ICHKI MAHSULOTI  
O’SISHIDA KICHIK BIZNESNING TA’SIRI

*O’rinboyeva Sarvinoz Azim qizi*

*TKTI Yangiyer Filiali Iqtisodiyot va ijtimoiy  
fanlar kafedrasi stajor o’qituvchisi  
sarvinozorinboyeva558@gmail.com*

*Abduholiqova Munisa Rayimqul qizi*

*TKTI Yangiyer Filiali Menejment yo’naliishi  
2-bosqich talabasi  
abduhalikovamunisa2@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Respublikamizning Yalpi ichki mahsuloti o’sish dinamikasi, unda kichik biznesning o’rni va ijobiy ta’siri tahlil qilinadi. Bunga ko’ra, Yalpi ichki mahsulot o’sishida kichik biznesning ta’sir kuchi yuqori ekanligi va ijobiy ta’siri aniqlandi.

**Kalit so’zlar:** Yalpi ichki mahsulot, Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, investitsiya, yalpi ichki mahsulot jon boshiga.

**Kirish:** Hozirgi jadal suratlarda rivojlanib, globallashib borayotgan zamonda mamlakatlar o’z iqtisodiyotini barqarorlashtirish va iqtisodiy o’sishning eng muhim ko’rsatkichlaridan biri bo’lgan asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkich yalpi ichki mahsulotni o’stirish hamda ushbu o’sish jarayonida ham inklusiv yoki intensiv o’sishga harakat qilmoqda. Buning uchun albatta, o’zining mavjud potensialidan to’laqonli foydalanish asosiy omil vazifasini bajaradi. Ma’lumki, yalpi ichki mahsulotni o’stirishda tadbirkorlikning o’rni beqiyos. Bunga davlatimiz qonunchiligidagi ham katta ahamiyat berilayotganini ko’rishimiz mumkin.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni asosida yurtimizda 2023-yil 11-sentabr kuni O’zbekiston - 2030 strategiyasi to‘g’risida farmoni qabul qilindi. Unga ko’ra, Barqaror iqtisodiy o’sish orqali aholi farovonligini ta’minlash bilan bog’liq 17 turdagи maqsad va vazifalar belgilab olindi.<sup>1</sup>

Aniqroq ma’lumot berib aytadigan bo’lsak, 2030-yilgacha Yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliardga yetkazish va “daromadi o’rtachadan yuqori bo’lgan davlatlar qatoriga kirish, ya’ni aholi jon boshiga daromadning 4 ming dollar va undan yuqori suratga yetkazish ko’zda tutilgan.”<sup>2</sup>

Ma’lumot o’rnida aytadigan bo’lsak, 2023-yilda O’zbekiston yalpi ichki mahsulot hajmi 90,9 millard dollardan oshdi va bu raqam aholi jon boshiga hisoblaganda 2,5 ming dollardan tashkil qiladi. Bu ko’rsatkich O’zbekiston hududida ilk bor qayd etildi va o’tgan yilda mamalakat yalpi ichki mahsulot hajmi qariyb 6 foizga o’sgan. Yalpi ichki mahsulot hajmini o’sishida sanoat, qishloq xo`jaligi, qurilish,

<sup>1</sup>O’zbekiston Respublikasi Prezidenti “O’zbekiston - 2030 strategiyasi to‘g’risida” Farmoni PF-158-son <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

<sup>2</sup>O’zbekiston Respublikasi Prezidenti “O’zbekiston - 2030 strategiyasi to‘g’risida” Farmoni PF-158-son <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

xizmatlar katta ahamiyatga ega va shular qatorida kichik biznes faoliyati mamlakat yalpi ichki mahsulotiga sezilarli ta`sir ko`rsatdi. Ular innovatsiyalar,ish o`rnlari yaratish va eksportni rag`batlantirish kabi turli yo`llar orqali mamlakatni iqtisodiy jihatdan o`sishiga hissa qo`shti.

Kichik biznes innovatsiyalar sohasida yetakchi o`rinda turadi,chunki kichik bizneslar ko`pincha yangi g`oyalar va texnologik yechimlarni joriy qiladi va bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, shuningdek yangi mahsulotlar va xizmatlarni joriy etib, iqtisodiy o`zgarishlarni amalgalashadi.

Kichik biznes faoliyati eksportni rag`batlantirishda muhim rol o`ynab, valyuta tushumlari orqali mamlakat yalpi ichki mahsulotiga hissa qo`shtishi mumkin. Kichik biznes bilan shug`ullanuvchilar xalqaro standardlarga javob beruvchi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish orqali jahon bozorlariga kirib, mamlakatning savdo balansi va valyuta tushumlariga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Xususan,O`zbekiston eksportida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2000 yilda 10,2 foizni tashkil etgan bo`lsa, 2020 yilga kelib ushbu ko`rsatkich 20,5 foizga etdi. Tahlil etilayotgan davrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning importdagi ulushi 22,8 foizdan 51,8 foizga etdi .

O`zbekiston iqtisodiyoti 2019-yildan beri yalpi ichki mahsulotini qariyb 50 foizini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tashkil qiladi. Biroq, 2022-yil bu ko`rsatgich 4 foizga kamaydi. Ushbu davrda qurulish va bandlik ko`rsatgichlari ham kamaygan. Import ko`rsatgichlarida esa muhim o`zgarishlar bo`ldi - qariyb 13 foizga kamaydi. Bu esa ichki ishlab chiqarishni rag`batlantirishga qaratilgan bo`lishi mumkin.(2-rasm)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi (umumiylajmga nisbatan, %da)										
Ko`rsatkichlar	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
YIM	60,9	61,9	64,6	66,8	65,3	62,4	56,0	54,8	54,1	51,8
Sanoat	33,0	36,8	40,6	45,3	41,2	37,4	25,8	27,9	27,4	26,0
Qurilish	70,6	69,5	66,7	66,9	64,8	73,2	75,8	72,5	72,5	71,5
Bandlik	76,7	77,6	77,9	78,2	78,0	76,3	76,2	74,5	74,5	73,9
Eksport	26,2	27,0	27,0	26,0	22,0	27,2	27,0	20,5	20,0	29,6
Import	42,4	45,4	44,5	46,8	53,6	56,2	61,6	51,7	45,3	49,4

Manba: Statistika agentligi


## **2-rasm.Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi(umumiylajmga nisbatan, %da)**

O`zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi sezilarli darajada oshib bormoqda. 2022-yilda O`zbekiston

Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik biznesni qo`llab-quvvatlash va ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish maqsadida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlar nafaqat iqtisodiy o`sishni jadallashtiradi, balki mamlakatda aholi bandligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlardagi tendensiyalarga qaralsa, ularning aksariyatida O`zbekistondagi kabi band aholining 50 foizidan ko`prog'i kichik va o`rta biznes sektorida ishlaydi. Kichik va o`rta biznes sektorining yalpi ichki mahsulotga qo`shayotgan hissasi ham aksariyat rivojlanayotgan iqtisodlarda 50 foizdan ko`p.<sup>3</sup>

Aholining ko`p qismi kichik bzines bilan band hisoblansa yalpi ichki mahsulotga ijobjiy ta`sir qiladi va bundan tashqari kichik va o`rta bizneslar mahalliy iqtisodiyotni qo`llab-quvvatlaydi, ya`ni kichik bizneslar mahalliy xom ashyolarni ishlatib,mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishga yordam beradi,bu esa yalpi ichki mahsulotga ijobjiy ta`sir qiladi.(1-rasm)

**Kichik va o`rta biznesda bandlik ulushi (2018 – 2020; %da)**  
Manba: BMT Yevropa iqtisodiyot komissiyasi



**1-rasm. Kichik va o`rta biznesda bandlikning ulushi O`zbekiston va boshqa qo`shni davlatlarda. (2018-2020-yillar kesimida %da)<sup>4</sup>**

O`zbekistonda kichik va o`rta biznesni qo`llab-quvvatlash uchun ko`plar ishlarni amalga oshirilmoqda.Bu yilgi Prezidentning tadbirkorlar bilan uchrashuvidan song chora-tadbirlar dasturlari e`lon qilindi. Davlat rahbarining 4-sentabrdagi qarorida kichik biznes loyihalarini qo`llab-quvvatlash uchun 150 mln dollar miqdorida kredit liniyasi ochilishi va kreditlar qulay shartlarda 7 yilgacha muddatga ajratilishi belgilandi. Kichik biznes loyihalarini qo`llab-quvvatlash institutlarini takomillashtirish chora-tadbirlar dasturi doirasida yangi tashkil

<sup>3</sup><https://www.proreforms.uz/uz/publications/factors-of-economic-growth-small-and-medium-sized-enterprises-169>

<sup>4</sup><https://www.proreforms.uz/uz/publications/factors-of-economic-growth-small-and-medium-sized-enterprises-169>

etilgan **Biznesni rivojlantirish banki** huzurida har bir hududda 14 ta kichik biznesga ko‘maklashish markazlarini tashkil etish loyihasi ham amalga oshirilishi kerakligi ta’kidlangan.<sup>5</sup> Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, keyingi yillarda mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirishda ularning imkoniyatlaridan to`liq foydalanish, kichik korxonlarga innovatsiyalarni joriy etishni rag`batlantirishga qaratilgan yangi tizimning ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Bu turdagи islohot dasturlariga ustuvorlikning qaratilishi mamlakatimizda kichik innovatsion biznesni rivojlantirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikka erishish uchun zamin yaratadi.

### Xulosa va Takliflar.

Xulosa qilib aytish mumkinki mamlakat yalpi ichki mahsulotining hajmini o’sishida kichik biznesning o’rni sezilarli darajada. Kichik biznes faoliyati yirik ish beruvchilar bo‘lib, iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida ish o‘rinlarini yaratadi. Kichik biznes faoliyati bilan shu g‘ullanuvchilar aholini ish bilan bandligini ta’minalash orqali o‘zlarini daromad darajasini oshirishga shu bilan bir qatorda mamlakatda ishsizlik darajasini pasaytirishga hissa qo‘sadi. Kichik biznes va mamlakat yalpi ichki mahsulotlarini o’sishida to`sinqinlik qiladiga ko`plab muamolar mavjuda.

Kapitalning yetishmasligi, adolatsiz raqobat va iste`molchilarining o`zgaruvchan extiyojlari yetarlicha bunga yetarlicha misol bulishi mumkin. Mamlakat kichik va o`rta bizneslar uchun yetarli darajada mablag` ajratishi kerak. Chunki, kichik biznes yangi va sifatlari mahsulotlar yaratishga moyil bo`ladi va bu mamlakat iqtosodiyotiga ta`siri sezilarli darajada ta`sir qiladi. Mablag`ning yetishmasligi ko`plab imkoniyatlarni qo`ldan chiqib ketishiga sabab bo`ladi va shu qatorda ta`kidalab o`tish lazimki, tadbirkorlar uchun ko`plab erkinliklar va imtiyozlar yaratib berilishi lozim.

Axolining o`zgaruvchan extiyojlari bilan hukumat ko`plab so`rvlar o`tqazib borish lozim va ular yani mijozar bilan muloqot qilib borilishi, shuningdek ularning extiyoj va xoxishlarini o`rganish kerak. Bu taklifalar mamlakatda kichik biznesni rivojlanishi uchun qulay muhitni yaratadi chunki yuqorida takidlangandek kichik biznes har qanday rivojlangan mamlakatning yalpi ichki mahsulotga qo’shayotgan hissasi 50 foizdan ko‘p va bu kichik biznesning yalpi ichki mahsulot rivojiga qo’shayotgan hissasi yuqori ekanligini anglatmoqda.

### Adabiyotlar ro’yhati:

1. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Shodmonov. Sh.
2. Kichik va o’rta biznes: iqtisodiy o’sish omillari. Rahmatilla Ubayev Center for Progressive reforms. 2023.
3. Mustaqillik yillarda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy rivojlanishining statistik tahlili. S.A.Zakirova. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 2024.
4. Mamlakat yalpi ichki mahsulotini rivojlantirishda kichik biznesni o’rni va duch kelishi mumkin bo‘lgan muammolar tahlili. G’afurov. X.M. Qo’qon Universiteti, 2024.
5. Xorijiy investitsiyalarning mamlakat yalpi ichki mahsulotiga ta’siri. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2024.

<sup>5</sup><https://www.proreforms.uz/uz/publications/factors-of-economic-growth-small-and-medium-sized-enterprises-169>